

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

1931
TDSU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

2010
TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKHNICA UNIVERSITETI

1955
TAKTU
TOSHKENT DAVLAT VOKZALI ACADEMICHESKIY UNIVERSITETI

1955
TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKHNICA UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHITTEKUTA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbas Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbanova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakarlarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсупов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldasbayevich	
"Intellektual multk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtafigagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozoridagi rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoilov I.B., Qayumov J.A., Ismoilov F.B., Qo'idoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabev Nodir Abdurahimovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budget siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH MUAMMOLARI VA ULARNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ORQALI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Mirpulatova Luiza Mansurovna

TDIU Umumiqtisodiy fanlar kafedrasи

PhD, katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash masalalari va ularni bartaraf etish yo'llari raqamli transformatsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Banklarning resurs bazasi ularning kreditlash salohiyati va moliyaviy barqarorligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqotda onlayn depozitlar hajmning noaniqligi, raqamli likvidlik boshqaruvidagi qiyinchiliklar, global moliyaviy bozorlarning tezkor o'zgarishlari va foiz stavkalariga texnologik omillarning ta'siri yoritilgan. Muammolarni hal etish uchun moliyaviy raqamli savodxonlikni oshirish, resurslarni fintech hamkorliklari orqali diversifikasiya qilish hamda innovatsion raqamli mahsulotlarni – mobil banking, blokcheyn asosidagi xizmatlar va sun'iy intellektidan foydalangan kreditlash tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi. Xulosa sifatida, bank tizimining raqamli barqarorligini ta'minlash mamlakat iqtisodiy rivojiga bevosita hissa qo'shishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, resurs bazasi, moliyaviy barqarorlik, depozitlar, likvidlik foiz stavkalari, kreditlash, xalqaro moliyaviy bozorlar, bank tizimi.

Abstract: The article analyzes the problems of strengthening the resource base of commercial banks and the ways to address them from the perspective of digital transformation. The resource base of banks is the key factor that determines their lending capacity and financial stability. The study highlights the uncertainty of online deposit volumes, challenges in managing digital liquidity, rapid changes in global financial markets, and the impact of technological factors on interest rates. As solutions, it is recommended to enhance digital financial literacy, diversify resources through cooperation with fintech companies, and introduce innovative digital products — such as mobile banking, blockchain-based services, and AI-driven lending systems. In conclusion, it is emphasized that ensuring the digital resilience of the banking system directly contributes to the country's economic development.

Keywords: commercial banks, resource base, financial stability, deposits, interest rate liquidity, lending, international financial markets, banking system.

Аннотация: В статье проанализированы проблемы укрепления ресурсной базы коммерческих банков и пути их решения с точки зрения цифровой трансформации. Ресурсная база банков является основным фактором, определяющим их кредитный потенциал и финансовую устойчивость. В исследовании освещены неопределенность объемов онлайн-депозитов, сложности управления цифровой ликвидностью, быстрые изменения на глобальных финансовых рынках и влияние технологических факторов на процентные ставки. В качестве решений предлагается повышение уровня цифровой финансовой грамотности, диверсификация ресурсов за счет сотрудничества с финтех-компаниями, а также внедрение инновационных цифровых продуктов — мобильного банкинга, сервисов на основе блокчейна и систем кредитования с применением искусственного интеллекта. В заключение подчеркивается, что обеспечение цифровой устойчивости банковской системы напрямую способствует экономическому развитию страны.

Ключевые слова: коммерческие банки, ресурсная база, финансовая стабильность, депозиты, ликвидность процентных ставок, кредитование, международные финансовые рынки, банковская система.

KIRISH

Tijorat banklari mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinn tutadi. Ular o'z resurslari orqali raqamli moliyaviy vositachilik funksiyasini bajaradi, korxonalar va jismoniy shaxslarga onlayn kreditlar ajratib, iqtisodiy faoliyknii oshiradi. Banklarning resurs bazasi ularning kredit berish imkoniyatlarini belgilaydi va raqamli barqarorlikni ta'minlaydi. Shu boisdan tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash masalalari, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida dolzarb ahamiyatga ega.



Resurs bazasini kuchaytirishdagi muammolar asosan onlayn depozitlar va kredit resurslarini kengaytirishdagi qiyinchiliklar, raqamli likvidlikni boshqarishdagi murakkabliklar va moliyaviy bozordagi raqamli raqobatning kuchayishi bilan bog'liq. Ushbu maqlolada tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashdagi raqamli muammolar tahlil qilinadi, mayjud texnologik imkoniyatlar va cheklovlar ko'rib chiqiladi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Tijorat banklarining resurs bazasi asosan o'z va jalb qilingan raqamli mablag'lardan tashkil topadi. O'z mablag'lari bankning asosiy kapitalini ifodalab, aksiyadorlar tomonidan raqamli platformalar orqali investitsiya qilingan ulushlardan shakllanadi. Jalb qilingan mablag'lar esa ko'proq onlayn depozitlar, raqamli kredit liniyalari va boshqa innovatsion moliyaviy instrumentlardan iborat. Ayniqsa, onlayn depozitlar banklarning asosiy jalb qilingan resurslari bo'lib, ular bankning real vaqt rejimida likvidligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Joseph Stiglitz – Nobel mukofoti sovrindori Stiglitzning fikricha, tijorat banklarining barqarorligi bozor iqtisodiyotining samaradorligini belgilaydi. U bank tizimida ishonchni oshirish uchun davlat tartibga solishining ahamiyatini ta'kidlaydi. Milton Friedman – Monetarizm asoschisi bo'lgan Friedman bank tizimining resurs bazasini kengaytirishda pul-kredit siyosati muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, banklar foiz stavkalarini nazorat qilish orqali o'z aktivlarini samarali boshqarishi kerak. Hyman Minsky – Minsky moliyaviy barqarorlik nazariyasi doirasida banklarning kreditlash siyosati iqtisodiy inqirozlar bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ortiqcha qarz olish bank tizimini zaiflashtiradi. John Maynard Keynes – Keynes kredit bozorining o'sishi investitsiyalar va iqtisodiy faoliytni oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlagan. Uning fikricha, tijorat banklari iqtisodiy o'sishning asosiy vositachisi hisoblanadi. Paul Krugman – Krugman bank tizimidagi likvidlik muammolari va moliyaviy vositachilikning ahamiyati haqida yozgan. Uning fikricha, resurs bazasining barqarorligi iqtisodiy turg'unliklarning oldini oladi.

DeYoung va hammualliflar[2] maqlasida AQSh hamjamiyat (community) banklarida internet-kanal joriy etilishi oqibatlarini tahlil qilib, daromadlilikning asosan depozit xizmatlari bo'yicha to'lovlar hisobiga oshganini ko'rsatadi. Internet bank qanday yo'naltirishda resurs bazasiga ta'sir qilishi ham ochiladi: MMDAlarga siljish, brokerlik depozitlari ulushi ortishi va geografiyadan qat'i nazar yuqori stavkalar bilan tez depozit jalb qilish imkoniyati. Biroq bunday depozitlar "yadro"dan kamroq yopishqoq bo'lishi mumkin. Natija: raqamli kanal filiallarni to'ldiradi, ammo passivlar tarkibini faol boshqarishni talab qiladi.

I.Hernando va M.Nieto[3] tadqiqotida Ispaniya tijorat banklarida tranzaksion veb-sayt qabul qilinishi xarajatlar (xodimlar, marketing, IT)ni bosqichma-bosqich kamaytirib, 1,5 yildan so'ng ROA, 3 yildan so'ng ROE'ni yaxshilashini ko'rsatadi. Internet kanali filial o'rnini egallamaydi, mijoz jalbi va xizmat ko'rsatishning arzonroq yo'li sifatida uni to'ldiradi. Bu, o'z navbatida, depozitlarni masofadan ochish va xizmat ko'rsatish orqali resurs bazasining hajmi va sifatini oshirishga xizmat qiladi; passivlar qiymatini pasaytiradi.

S.Huang va hamkasblari [4] ilmiy ishida AQSh banklarining Zelle tarmog'iga qo'shilish qarorlarini va oqibatlarini tahlil qiladi. Tarmoq effektlari kuchli bo'lgan bozorlarida Zelle bilan hamkorlikdan so'ng banklarda depozit o'sishi va KOB kreditlash kengayishi kuzatiladi; bu raqamli to'lov ekotizimiga ulanadigan banklarning mijoz bazasi va tranzaksion faoliigi ortishi bilan izohlanadi. Xulosa: strategik to'lov hamkorliklari (P2P/instant) resurs bazasini sifatli depozitlar hisobiga kengaytirishning kuchli vositasidir, biroq xavfsizlik va mijoz ishonchi boshqaruvi shart.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Banklarning resurs bazasini kengaytirish va mustahkamlashda raqamli depozit tizimlarining ahamiyati beqiyosdir. Biroq, raqamli depozitlarning hajmi ko'proq aholining daromad darajasi, ularning raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchi va iqtisodiy barqarorlik kabi omillarga bog'liq. Shu bilan birga, tijorat banklari xalqaro raqamli moliyaviy platformalar va fintech tashkilotlardan mablag' jalb qilish orqali o'z resurs bazasini kengaytirishi mumkin. Ammo bu jarayonda valyutalar kursidagi onlayn tebranishlar, global foiz stavkalaridagi farqlar va xalqaro raqamli moliyaviy inqirozlar kabi xavf-xatarlar mavjud.

Tijorat banklarining raqamli resurs bazasini mustahkamlashdagi muammolar:

Raqamli depozit bazasining noaniqligi: Aholi va korxonalar tomonidan qo'yiladigan onlayn depozitlar banklarning asosiy resursidir. Lekin iqtisodiy beqarorlik va moliyaviy inqiroz davrida mijozlarning raqamli



banking xizmatlariga bo'lgan ishonchi pasayishi, natijada depozitlarning kamayishiga va raqamli likvidlik muammolariga olib kelishi mumkin.

Raqamli likvidlikni ta'minlashdagi qiyinchiliklar: Banklarning real vaqt rejimida likvidlik darajasi ularning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyatini belgilaydi. Agar raqamli likvidlik darajasi past bo'lsa, bu moliyaviy barqarorlikka xavf tug'diradi. Ko'plab banklar blokcheyn asosidagi likvidlik platformalari yoki markaziy bankning raqamli kredit liniyalaridan foydalanishga majbur bo'ladi, bu esa ularning mustaqilligini cheklashi mumkin.

Xalqaro raqamli moliyaviy bozorlarning ta'siri: Tijorat banklari xalqaro fintech hamkorliklari va global raqamli moliyaviy bozorlardan resurslar jalb etishga harakat qiladi. Lekin valyutalar kursining tezkor o'zgarishi, kriptovalyuta bozoridagi beqarorlik va xalqaro onlayn to'lov tizimlaridagi muammolar banklarning raqamli barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Foiz stavkalari va raqamli mahsulotlar bilan bog'liq muammolar: Banklarning raqamli resurs bazasini kengaytirishda foiz stavkalari ham muhim ahamiyatga ega. Markaziy bankning foiz siyosati oshirilsa, bu tijorat banklari uchun raqamli platformalar orqali jalb qilingan mablag'larning narxini oshiradi va ularning kreditlash imkoniyatlarini cheklaydi.

Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash ular uchun muhim strategik vazifa bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon, ayniqsa, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va bank tizimining raqamli samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Raqamli depozit bazasining kengayishi, real vaqt rejimida likvidlikni boshqarish, xalqaro raqamli moliyaviy bozorlardan resurslar jalb qilish, foiz risklarini onlayn monitoring qilish va global raqamli raqobatni yengib o'tish kabi masalalar tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda asosiy muammolar sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish, markaziy bank tomonidan fintech va raqamli innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish, resurslarni raqamli diversifikatsiya qilish va blokcheyn hamda sun'iy intellekt asosidagi innovatsion mahsulotlarni joriy etish zarur.

Shuningdek, banklar o'z faoliyatida zamонави raqamli boshqaru vositalaridan – masalan, Big Data tahlillari, onlayn risk-menejment platformalari va kiberxavfsizlik tizimlaridan foydalanish orqali moliyaviy xavflarni kamaytirishi va o'zining uzoq muddatli raqamli barqarorligini ta'minlashi mumkin.

Mazkur tahlil tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq muammolarni chucherroq o'rganishga yordam beradi va bank tizimining raqamli barqarorligini oshirish uchun muhim tavsiyalarni beradi. Shu orqali tijorat banklari raqamli iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga hamda moliyaviy tizimning texnologik barqarorligiga o'z hissasini qo'shadi. Bu jarayon bank tizimining har tomonlama raqamli taraqqiy etishini, xalq farovonligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotimizda mamlakatimizning strategik hamkorlaridan biri bo'lgan Qozog'iston Respublikasi bank tizimida raqamli banking xizmatlari jismoniy va yuridik shaxslar faoliyatida qanday o'r'in tutayotgani tahlil qilinadi. Shu bilan birga, banklarning raqamli barqarorligini oshirish, chet el kapitali ishtirokidagi banklarning texnologik faolligini rag'batlantirish hamda blokcheyn, sun'iy intellekt va mobil banking asosida yuqori sifatli xizmatlarni taklif etish orqali bank tizimida raqamli raqobat muhitini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida qayd etilgan muammolar va kamchiliklarning bartaraf etilishi istiqbolda O'zbekiston tijorat banklarining raqamli depozit bazasini kengaytirishga xizmat qiladi. Chunki bu chora-tadbirlar muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri bo'lib, mamlakat tijorat banklari resurslari hajmini oshirish va ularning raqamli barqarorligini ta'minlash yo'lida yangi imkoniyatlar yaratadi. Ulardan samarali foydalanish esa banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish bilan birga, raqamli bank xizmatlariga bo'lgan ishonchni orttiradi va uni yanada mustahkamlaydi.

Shuningdek, Respublikamizda yuridik shaxslarning raqamli depozit faoliyatini hamda mamlakatning eng yirik banki hisoblangan Xalq banking raqamli depozit siyosatini amalga oshirishdagi joriy tajribasi tahlil qilinib, undagi asosiy texnologik tendensiyalar aniqlashga qaratiladi.

Qozog'iston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakunida mamlakatda 28 tijorat banki va raqamli bank operatsiyalarining ayrim turlari bilan shug'ullanuvchi 7 ta tashkilot faoliyat yuritgan. 2022-yil davomida esa 5 tijorat banki o'z faoliyatini to'xtatgan. Xususan, «Kazinvestbank», «Delta Bank» va «Qazaq Banki» faoliyati sud qarorlari asosida to'xtatilgan bo'lsa, «Bank Astana» va «Eksimbank Kazakhstan» AJlarning litsenziyalari Markaziy bank tomonidan qaytarib olingan.

Mazkur holat bank sektorida raqamli transformatsiyaning ahamiyatini ko'rsatadi. Chunki, zamонави raqamli boshqaruva tizimlari, onlayn monitoring mexanizmlari va blokcheyn asosidagi nazorat platformalaridan foydalanish orqali bunday xavflarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni oshirish hamda banklarning faoliyatini yanada shaffof qilish mumkin (1-jadval).



1-jadval. Qozog'iston Respublikasi tijorat banklari jamlanma balansi dinamikasi, (mln.tanga).

Ko'rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Jamlanma balans	18 239 255	23 784 427	25 561 157	24 220 516	25 240 959
Yil yakunida AQSh dollari / tanga kursi	182,35	339,47	333,29	332,33	384,20
AQSh dollarida ifodalangan jamlanma balans	100 023	70 063	76 693	72 881	65 697
Mijozlarga ajratilgan kredit va lizing	10 360 923	13 764 673	13 662 143	11 034 734	11 632 369
Kredit operatsiyalarining salmog'i, %	56,8	57,9	53,4	45,5	46,1
Mijozlar oldidagi majburiyatlar	11 430 551	15 829 587	17 471 404	16 779 346	17 164 724
Muddatli jamg'armalar	272 278	432 201	261 517	145 665	140 654
Jami depozitlar	11 702 829	16 261 788	17 732 921	16 925 011	17 305 378
Depozitlar salmog'i, %	64,2	68,4	69,4	69,9	68,6
Depozitlar va kreditlar o'tasidagi nisbat, %	112,9	118,1	129,8	153,4	148,8
Bank kapitali jami	2 359 682	2 494 486	2 844 859	3 091 036	3 017 554
Bank kapitalining balansdagi salmog'i, %	12,9	10,8	11,2	12,7	11,9
Muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	1 215 103	2 100 933	1 778 127	1 321 077	1 665 143

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, 2022-yil yakuniga kelib Qozog'iston Respublikasi bank sektorida raqamli jamlanma balans 25 240 959 mln. tengeni tashkil etib, bu yil oxiridagi AQSh dollariga nisbatan shakllangan kurs bo'yicha 65 697 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan. Banklarning umumiy balansi 2018-yilga nisbatan 7 001 704 mln. tengega yoki 138,4 foizga o'sgan. Biroq, dollarda ifodalangan balans hajmi 2018-yilga nisbatan 34 326 mln. AQSh dollariga kamaygan.

Tahlil davrida jismoniy va yuridik shaxslarning milliy hamda xorijiy valyutadagi raqamli depozitlari hajmi ortib borgan. Masalan, 2018-yilda bank sektoriga jalb etilgan depozitlar hajmi 11 702 829 mln. tengeni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yil yakunida onlayn depozit hisobvaraqlari qoldig'i 17 305 378 mln. tengega yetgan. Natijada, jamlanma balansdagi depozitlarning ulushi 2018-yildagi 64,2 foizdan 2022-yilda 68,6 foizga oshgan.

Shuningdek, tijorat banklarining depozit portfelida xorijiy valyutadagi raqamli omonatlar hajmi ham ko'payish tendensiyasini namoyon etgan. Jumladan, 2022-yil yakunida yuridik shaxslarning AQSh dollarida ochilgan onlayn depozitlari salmog'i 49,3 foizni tashkil qilib, 2021-yilga nisbatan 5,5 foiz punktga ko'paygan. Biroq jismoniy shaxslarning raqamli depozitlari bo'yicha aksincha vaziyat kuzatilgan: 2021-yilda AQSh dollarida ochilgan depozitlarning umumiy depozitlardagi ulushi 52,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yil oxiriga kelib 47,4 foizga tushib ketgan, ya'ni 4,8 foiz punktga kamaygan.

2022-yilda yuridik shaxslarning milliy valyutadagi muddatli onlayn depozitlari bo'yicha o'tacha foiz stavkalari 7,1 foizni (2021-yilda 8,0 foiz), jismoniy shaxslarning esa 10,4 foizni (2021-yilda 11,7 foiz) tashkil qilgan. Ushbu raqamlar bank sektorida raqamli transformatsiyaning omonatlar tuzilmasiga va foiz stavkalariga sezilarli ta'sir ko'rsatganini anglatadi.

Bank tizimiga jalb etilgan raqamli depozitlar hajmining oshib borishi tijorat banklarining resurs bazasini nisbatan arzon va uzoq muddatli moliyaviy mablag'lar bilan mustahkamlash imkonini berdi. 2022-yil yakunida yuridik shaxslarga ajratilgan raqamli kreditlar bo'yicha o'tacha foiz stavkasi 11,7 foizni tashkil etgan (umumiy hisobda 12,4 foiz bo'lib, 2021-yilga nisbatan 1,2 foiz punktga kamaygan). Jismoniy shaxslarga onlayn kreditlar bo'yicha foiz stavkasi esa 17,2 foizni tashkil etib, 2022-yilda 18,5 foiz, 2021-yilda esa 18,8 foiz bo'lgan va pasayish 0,3 foiz punktni tashkil qilgan. Shu bilan birga, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ko'rsatuvchi asosiy indikatorlardan biri – raqamli depozitlar va kreditlar o'tasidagi nisbat talab darajasida saqlanib qolgan: 2018-yilda 112,9 foiz bo'lsa, 2021-yilda 153,4 foizni, 2022-yilda esa 148,8 foizni tashkil etgan.

Tijorat banklarining jamlanma balansidagi xususiy kapital ulushi ham xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan me'yorlarga mos kelgan bo'lib, 2022-yil yakunida 11,9 foizni tashkil etgan.

E'tiborli jihat shundaki, Qozog'iston Respublikasi Markaziy banki aholining vaqtinchalik bo'sh mablag'larini tijorat banklari va boshqa moliyaviy tashkilotlar orqali jalb etish bo'yicha innovatsion qarolarni ham qabul



qilmoqda. Masalan, 2021-yilning may oyidan boshlab aholiga raqamli oltin quymalar savdosi yo'lga qo'yilgan. 2022-yilning noyabridan esa nafaqat tijorat banklari, balki naqd xorijiy valyuta bilan ishlash vakolatiga ega bo'lgan boshqa tashkilotlar ham onlayn oltin savdosida ishtirok etishni boshlashgan. 2022-yil yakunida oltin quymalar 5 turda (5, 10, 20, 50 va 100 gramm) elektron savdo tizimlari orqali aholiga taqdim etilgan. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda aholiga jami 151 kilogramm og'irlikdagи 3 962 dona oltin quyma raqamli tranzaksiyalar orqali sotilgan bo'lib, umumiy qiymati 3 mlrd. tengeni tashkil etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan muammo va kamchiliklarning bartaraf etilishi istiqbolda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining raqamli depozit bazasini kengaytirishga xizmat qiladi. Chunki, ushbu chora-tadbirlar zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri bo'lib, mamlakat tijorat banklari raqamli resurslari hajmini oshirish va ularning barqarorligini ta'minlash doirasida keng imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish esa banklarning raqamli moliyaviy barqarorligini oshirish bilan birga, aholining onlayn bank xizmatlariga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi va bank tizimini yanada mustahkamlaydi.

Shuningdek, Respublikamizda bank tizimining raqamli taraqqiyoti iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, aholining moliyaviy savodxonligi hamda farovonligini oshirishga, shuningdek, xalqaro raqamli integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Банковский менеджмент: Учебное пособие / Е.Г. Шершнева, Е.С. Кондюкова.- Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2017.— 748 с
2. DeYoung, R., Lang, W. W., & Nolle, D. L. (2007). How the Internet Affects Output and Performance at Community Banks. *Journal of Banking & Finance*, 31(4), 1033–1060.
3. Hernando, I., & Nieto, M. J. (2007). Is the Internet Delivery Channel Changing Banks' Performance? The Case of Spanish Banks. *Journal of Banking & Finance*, 31(4), 1083–1099.
4. Huang, S., Jiang, B., & Xiao, Y. (2023). The Impact of FinTech on Banking: Evidence from Banks' Partnering with Zelle. *SSRN Working Paper No. 4595733*.
5. Деньги, кредит, банки: Учебник/ коллекти夫 авторов; под ред. Л.П.Кроливецкой. - Москва : КРОНУС, 2019.— 414 с
6. Долан Э. Дж., и др. Деньги, банковские дела и денежно кредитная политика. Пер. с англ. -Москва-Ленинград: 1991.-446 с.
7. Катыкало В.С. Эволюция теории стратегического управления. -Высшая школа менеджмента СПбГУ. - 3-е изд.- СПб.: -Издательство «Высшая школа менеджмента»; Издат.дом С.Петербург. -гос.ун-та.-2011.-С.548.
8. Киселев, В. В. Управление банковским капиталом (теория и практика) – М.: Экономика, 1997. – 256 с.
9. Коммерческие банки / Э. Рид, Р. Коттер, Э. Гилл и др. – М: Космополис, 1991. – 501 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100